



ILK YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ASARLARNING O'RNI.

Jabborova Marifat Qodiraliyevna

Farg'ona davlat universiteti

Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti, (PhD)

Rejabaliyeva Mubinaxon Habibullo qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

23.32-guruh 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ilk yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning pedagogik va tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Badiiy asarlarning bolalar ongiga, nutq rivojiga, hissiy kechinmalariga hamda axloqiy sifatlarining shakllanishiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, ertak, hikoya, she'r va topishmoqlarni bolalarda mehr-oqibat, halollik, do'stlik, mehnatsevarlik kabi ijobiy axloqiy fazilatlarni rivojlantirishdagi o'rni ochib berilgan. Maqolada maktabgacha ta'lim jarayonida badiiy adabiyotdan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-pedagogik xulosalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *mutafakkir, alloma, ruhiy, axloqiy va intellektual, ertaklar, nutq rivoji, tarbiyaviy vosita.*

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning shaxs sifatida shakllanishini ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ilk yosh davr bolaning ruhiy, axloqiy va intellektual rivojlanishida hal qiluvchi bosqich bo'lib, bu davrda berilgan tarbiya va ta'lim butun hayoti davomida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish tarbiya jarayonining ajralmas qismi sanaladi.

Ota-bobolarimiz azal-azaldan bola tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib kelganlar. Sharq mutafakkirlari va allomalari tomonidan yaratilgan boy ma'naviy-ma'rifiy merosda komil insonni tarbiyalash g'oyasi yetakchi o'rinni egallaydi. Imom al-Buxoriy, Iso at-Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Az-Zamaxshariy, Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon kabi ulug' olim va adiblar bolaning ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlangan qimmatli asarlar yaratganlar. Sharq pedagogikasining muhim manbaalari hisoblangan Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shahri», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Kaykovusning «Qobusnoma», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarlarida bola shaxsini ma'naviy kamolga yetkazish faqatgina yuksak axloq-odob va ilm-fanni egallash



asosidagina amalga oshishi mumkinligi ta'kidlangan. Ushbu g'oyalar bugungi maktabgacha ta'lim tizimi uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, har bir tarbiyachi bu asarlar bilan tanishishi va o'ganishi maqsadga muvofiqdir.

Badiiy adabiyot bolaning tasavvurini boyituvchi, nutqini rivojlantiruvchi va axloqiy tushunchalarini shakllantiruvchi muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ertaklar, hikoyalar, she'rlar va boshqa badiiy asarlar orqali bolalar yaxshilik va yomonlik, to'g'rilik va noto'g'rilik, mehr-shafqat, do'stlik kabi tushunchalarni oson va tabiiy tarzda o'zlashtiradilar. Badiiy obrazlar bolaning hissiy olamiga chuqur ta'sir ko'rsatib, uning xulq-atvori va dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi. Ilk yoshdagi bolalar uchun badiiy adabiyot nafaqat bilim manbai, balki axloqiy tarbiya beruvchi kuchli vosita hamdir. Chunki bolalar asar qahramonlariga taqlid qilish, ularning xatti-harakatlarini baholash va takrorlash orqali ijobiy axloqiy sifatlarni o'zlashtiradilar. Shu sababli maktabgacha ta'lim jarayonida badiiy asarlarni yosh xususiyatlariga mos holda tanlash va ulardan samarali foydalanish pedagog oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Bu vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalar uchu asarlarni to'g'ri tanlash
2. Bolalarga asarni ifodali yetkazish
3. Bola nutqini rivojlantirishga yo'naltirish
4. Bolaga axloqiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish
5. Bola uchun faol ijodiy faoliyatni tashkil etish
6. Oila bilan hamkorlik qilish
7. Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda tizimlilik va uzviylikni ta'minlash

Badiiy adabiyot bilan muntazam tanishtirilgan bolalarda so'z boyligi kengayadi, to'g'ri talaffuz va ifodali nutq ko'nikmalari shakllanadi, tinglash va tushunish qobiliyati rivojlanadi hamda obrazli tafakkur va ijodiy tasavvur mustahkamlanadi. Ertak va hikoyalarda ijobiy va salbiy qahramonlar obrazlari orqali bolalar:

- Yaxshilik va yomonlikni farqlashni;
- Halollik, adolat, mehr-oqibat kabi tushunchalarni anglashni;
- Boshqalarga yordam berish va hamdard bo'lishni;
- Jamoda o'zini tutish qoidalarini o'rganadilar.

Shuningdek, xalq ertaklarida mehnatsevarlik va sabr-toqat ulug'lansa, dangasalik va yolg'onchilik qoralanadi. Bu bolalarda axloqiy me'yorlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Biz bilamizki Ertaklar bolalar uchun eng tushunarli va qiziqarli badiiy janr hisoblanadi. She'rlar esa bolalarda ritm, ohang va estetik didni rivojlantiradi. Qisqa, mazmunli hikoyalar bo'lsa, bolada



diqqatini jamlash va mantiqiy fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi. Shu bilan birga, badiiy adabiyot bolalarda kitobga bo'lgan qiziqishni erta yoshdan shakllantirib, boshlang'ich ta'lim uchun mustahkam asos yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, ilk yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish ularning nutqiy, hissiy, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishida muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Badiiy asarlar orqali bolalarda ezgulik va yovuzlik, halollik va adolat, mehr-oqibat, do'stlik hamda mehnatsevarlik kabi ijobiy axloqiy sifatlar shakllanadi. Ayniqsa, ertak, hikoya va she'rlar bolalarning hissiy dunyosiga chuqur ta'sir ko'rsatib, ularning xulq-atvorini ijobiy tomonga yo'naltiradi.

Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan ta'lim-tarbiya haqidagi ilg'or g'oyalar bugungi maktabgacha ta'lim tizimida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bu merosda badiiy adabiyot yosh avlodni ma'naviy kamolga yetkazishning muhim vositasi sifatida e'tirof etilgan. Maktabgacha ta'lim jarayonida badiiy asarlarni yosh xususiyatlariga mos holda tanlash, ularni maqsadli va tizimli qo'llash bolalarda axloqiy me'yorlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shu boisdan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida badiiy adabiyotdan samarali foydalanish, pedagoglarning bu boradagi kasbiy mahoratini oshirish hamda bolalarda kitobga bo'lgan muhabbatni erta yoshdan shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa kelajakda ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlovchi va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalashga mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N. Qayumova, M. A'zamova "Maktabgacha pedagogika" darslik "Tafakkur" nashriyoti Toshkent - 2019
2. M.Q.Jabborova "Nutq o'stirish uslubiyoti" darslik FDU "Nusxa ko'paytirish bo'limi" Farg'ona 2025.
- 3.M.Q.Jabborova Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatiga tayyorlash ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida TDPU Ilmiy xabarlar. 2022\ 12-son ISSN 2181-9580 (13.00.00 №32)
4. M.Q.Jabborova The importance of communicative speech in improving the pedagogical training of future educators. «Science and innovation» International scientific journal volum 2 issue 2 February 2023 uif-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | scientists.uz8f-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 <https://doi.org/10.5281/zenodo.768257>